



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI DARSLARIDA KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLARNING O'RNI

Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarining ingliz tili darslarida kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida xalqaro standartlarning o'rni tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida chet tilini o'rganish nafaqat lingvistik bilimlarni, balki o'quvchilarning kelajak kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan kommunikativ, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarni shakllantirishni ham nazarda tutadi. Maqolada kompetensiyaga asoslangan yondashuv, funksional savodxonlik va amaliy til o'rganish tamoyillari muhim metodik omillar sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, xalqaro standartlar, CEFR, yuqori sinf o'quvchilari, ingliz tili ta'limi, kompetensiyaviy yondashuv.

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТАРШЕКЛАСНИКОВ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Ахмадалиева Хосиятпашшо Абдухаётовна
Академия банковского дела и финансов Республики Узбекистан, доцент (PhD)

Аннотация

В статье рассматривается роль международных стандартов в развитии профессиональной компетентности учащихся старших классов на уроках английского языка. Современная система образования требует не только формирования языковых знаний и навыков, но и подготовки обучающихся к будущей профессиональной деятельности в условиях глобализации. В данном контексте особое внимание уделяется международным стандартам, таким как CEFR, которые служат основой для оценки и развития коммуникативных и профессионально ориентированных компетенций учащихся. Подчеркивается значимость формирования у старшеклассников навыков профессионального общения, критического мышления и способности применять иностранный язык в реальных и профессиональных ситуациях.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, международные стандарты, CEFR, старшеклассники, обучение английскому языку, компетентностный подход, коммуникативная компетенция.

THE ROLE OF INTERNATIONAL STANDARDS IN DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF UPPER SECONDARY SCHOOL STUDENTS IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES

Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna
Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article deals with the issues based on analyzing the role of international standards in developing the professional competence of upper secondary school students in English language classes. In the modern educational context, foreign language instruction aims not only at developing linguistic skills but also at preparing students for future professional communication in a globalized environment. International frameworks such as the CEFR provide clear guidelines for integrating professional and communicative competencies into language teaching. Special attention is given to the development of students' professional communication skills, critical thinking, and ability to use English in real-life and career-related situations.

Keywords: professional competence, international standards, CEFR, upper secondary students, English language education, competence-based approach, communicative competence..

Globallashuv, raqamli transformatsiya va mehnat bozorida talablarning tez o'zgarishi sharoitida maktab bitiruvchisidan nafaqat umumiy til bilimlari, balki kasbiy yo'naltirilgan kommunikativ ko'nikmalar ham talab etilmoqda. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari (10–11-sinflar) uchun ingliz tili darslari kelajak kasbiga tayyorgarlikning muhim komponenti bo'lib, ular o'quvchi shaxsida kasbiy kompetentlikning dastlabki elementlari: muloqot madaniyati, o'z fikrini asoslab bayon qilish, professional kontekstda axborotni qabul qilish va qayta ishlash, jamoa bilan hamkorlikda ishlash kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi [6], [10]. Shu nuqtai nazardan, ingliz tili ta'limini xalqaro standartlarga tayangan holda tashkil etish dolzarb metodik masaladir. Xalqaro standartlar, xususan CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) til kompetensiyasini bosqichma-bosqich (A1–C2) tavsiflab, o'quv natijalarini aniq deskriptorlar orqali baholash imkonini beradi [1]. CEFRning amaliy ahamiyati shundaki, u dars maqsadlarini natijaga yo'naltirish, o'quv materiallarini bosqichga mos tanlash, vazifalarni kommunikativ vaziyatga yaqinlashtirish hamda baholash mezonlarini shaffoflashtirishga yordam beradi [2]. Bunda kasbiy kompetentlik — o'quvchining ma'lum kasb sohasida zarur bo'ladigan til vositalaridan vaziyatga mos foydalanishi, professional terminlar va nutq namunalarini tushunishi, kasbiy muloqot etikasi va madaniyatiga amal qilishi — sifatida talqin etiladi [7], [8].

Kasbiy kompetentlik tushunchasi zamonaviy pedagogikada “bilim–ko'nikma–malaka” doirasidan kengroq mazmunga ega bo'lib, shaxsning muayyan vazifani real vaziyatda mustaqil va samarali bajarish qobiliyati sifatida qaraladi [11]. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim natijalarini “nima o'rgatiladi”dan ko'ra “nima qila oladi” mezon bilan belgilashni talab qiladi [10], [11]. Xalqaro miqyosda bu g'oya funksional savodxonlik, 21-asr ko'nikmalari va mehnat bozoriga moslashuvchanlik konsepsiyalari bilan uyg'unlashadi [4], [12]. Aynan shu asosda yuqori sinf o'quvchisida ingliz tili orqali kasbiy muloqotga tayyorgarlikni rivojlantirish zarurati kuchaymoqda.

Til ta'limida CEFR muhim metodik “tayanch hujjat” hisoblanadi. Unda kommunikativ kompetensiya tarkibi (lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik) va til faoliyati turlari (tinglab tushunish, o'qish, yozish, gapirish) deskriptorlar orqali bosqichma-bosqich yoritiladi [1]. Keyingi yangilanish — CEFR Companion Volume esa interaksiya, mediatsiya (axborotni qayta ishlash, vositachilik) va plurilingual/pluricultural kompetensiyalarni kuchaytirib, o'quvchini real hayot va kasbiy vaziyatlarga yaqinroq tayyorlashni ko'zda tutadi [2]. Bu, ayniqsa, kasbiy kompetentlikka yo'naltirilgan darslarda juda dolzarb: masalan, prezentatsiya qilish, muhokama yuritish, kelishuvga erishish, xulosa chiqarish, ma'lumotni qayta izohlash kabi nutqiy amallar mediatsiya va interaksiya ko'nikmalariga tayanadi [2].

Chet tilini kasbiy maqsadlarda o'qitish (ESP — English for Specific Purposes)

yoʻnalishi ham kasbiy kompetentlik masalasini izchil yoritadi. ESPda oʻqitish mazmuni ehtiyoj tahliliga tayangan holda tanlanadi: oʻquvchining kelajak kasbiy vazifalari, kommunikativ vaziyatlari, zarur janrlar (email, CV, intervyu, taqdimot, hisobot) belgilab olinadi [7]. Hutchinson va Waters ESPni “oʻquvchi ehtiyoji” markaziga qoʻyib, material va topshiriqlarni aynan shu ehtiyojga mos qurishni taklif etadi [8]. Dudley-Evans va St John esa ESP kurslarida baholash mezonlari va autentik materiallarning oʻrni yuqoriligini asoslaydi [7]. Yuqori sinf sharoitida bu yondashuvni kasbga yoʻnaltirish elementi sifatida qoʻllash mumkin: oʻquvchilar turli sohalar (turizm, IT, iqtisod, tibbiyot, muhandislik) boʻyicha mini-modullar orqali kasbiy leksika va nutq namunalarini oʻrganadi [7], [8].

Xalqaro standartlar oʻquv maqsadlarini aniqlashtiradi, kasbiy yoʻnaltirilgan kontentni tanlashni ilmiy asoslaydi va baholashni mezonli qiladi. Natijada yuqori sinf oʻquvchisining kasbiy kompetentligi til taʼlimi orqali bosqichma-bosqich rivojlanishi mumkin [9], [11]. Soʻnggi yillarda chet tilini kasbiy yoʻnaltirilgan holda oʻqitish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biriga aylandi. Xususan, oʻquvchiga yoʻnaltirilgan (learner-centered) yondashuv, xalqaro ijtimoiy rivojlanish standartlari va innovatsion oʻqitish metodlari asosida kasbiy kompetentlikni shakllantirish masalasi qator ilmiy izlanishlarda chuqur yoritilgan.

Tadqiqotimizda akademik litseylar misolida learner-centered approachning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligi asoslab beriladi. Muallif oʻquvchining dars jarayonidagi faol ishtiroki, refleksiya va mustaqil qaror qabul qilishi til oʻrganish jarayonida muhim pedagogik omil ekanini taʼkidlaydi [14]. Ushbu yondashuv yuqori sinf oʻquvchilari uchun ham dolzarb boʻlib, ularni kelajak kasbiy muloqotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Flipped Classroom metodiga bagʻishlangan zamonaviy tadqiqotlarda oʻquv jarayonini auditoriya ichida va tashqarisida samarali tashkil etish imkoniyatlari ochib berilgan. “The Role of Flipped Classroom Method to Prepare Students for Profession at Secondary School” nomli tadqiqotda flipped classroom oʻquvchilarning masʼuliyat, muammoli fikrlash va kasbiy kompetensiya elementlarini rivojlantirishga xizmat qilishi koʻrsatib berilgan [13]. Bu metod xalqaro standartlar ruhiga mos boʻlib, oʻquvchini mustaqil tayyorgarlik va sinfda faol amaliy muloqotga jalb etadi.

4C Framework (Content, Communication, Cognition, Culture) asosida ingliz tili darslarini tashkil etish yuqori sinf oʻquvchilarining kasbiy kompetentligini sezilarli darajada oshirishi isbotlangan. Muallif ushbu modelni xalqaro ijtimoiy rivojlanish standartlari bilan uygʻunlashtirib, kasbiy muloqot, tanqidiy fikrlash va madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini ochib beradi [15].

Tadqiqot metodologiyasi kasbiy kompetentlikni CEFR deskriptorlariga tayangan holda rivojlantirishga yoʻnaltirilgan integrativ yondashuvga asoslanadi. Metodlar majmui: (1) oʻquv jarayonini loyihalash (curriculum mapping) — CEFR darajalari boʻyicha kutiladigan natijalarni dars mavzulari va kasbiy vaziyatlar bilan moslashtirish [2]; (2) ehtiyoj tahlili elementlari — yuqori sinf oʻquvchilarining qiziqishi va kelajak kasb yoʻnalishlarini aniqlash (mini-soʻrovnoma, “career interest checklist”) [8]; (3) vazifaga asoslangan oʻqitish (TBLT) va kommunikativ metodlar — professional vaziyatga yaqin topshiriqlar orqali nutqiy faoliyatni faollashtirish [6]; (4) CLIL mikro-modullari — 2–3 darslik mini-bloklarda fanlararo mavzularni til bilan integratsiya qilish [9]; (5) mezonli baholash — rubrika va deskriptorlar asosida formatif va summativ baholash [2]. Amaliy model quyidagicha ishlaydi. Birinchi bosqichda oʻqituvchi kasbiy yoʻnaltirilgan mavzuni tanlaydi (masalan, “Job interview”, “Customer service”, “Tour guide briefing”, “Startup presentation”). Keyin CEFRga mos kommunikativ natijalar belgilanadi: masalan, B1 darajada oʻquvchi “oddiy ish tajribasi haqida

izchil gapira oladi”, “oddiy savollarga javob beradi”, “qisqa taqdimot qiladi” kabi ko‘rsatkichlar [1]. Shundan so‘ng topshiriqlar ketma-ketligi quriladi: Pre-task (leksik-g‘oyaviy tayyorgarlik), Task cycle (rol o‘yinlari, muammo yechimi, intervyu simulyatsiyasi), Language focus (til birliklarini aniqlashtirish va takomillashtirish) [6]. CLIL elementlari qo‘shilganda, masalan “green economy” bo‘yicha kichik matn, diagramma yoki infografika berilib, o‘quvchi uni izohlash, xulosa chiqarish va munozara qilishga o‘rgatiladi [9]. Tahlil va muhokama qismi kasbiy kompetentlikning uch ko‘rsatkichiga tayandi: (a) kasbiy leksika va janr ko‘nikmalari (CV, email, prezentatsiya skripti), (b) interaktsiya va muloqot strategiyalari (savol berish, aniqlashtirish, kelishish/kelishmaslik), (c) huquqiy-sotsial madaniyat elementlari (etiket, mas’uliyatli nutq, hamkorlik). Ushbu ko‘rsatkichlar rubrika orqali baholanadi: mazmun aniqligi, tilning to‘g‘riligi, muloqot samaradorligi, kasbiy moslik [7]. Formatift baholashda “feedback + self-assessment” mexanizmi qo‘llanib, o‘quvchi o‘z natijasini CEFR deskriptorlari bilan taqqoslaydi, keyingi maqsadini belgilaydi [2]. Muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro standartlar asosida darsni loyihalash o‘quvchida aniq maqsad, o‘zini baholash va kasbiy kontekstda nutqiy faoliyatni amalga oshirish ko‘nikmalarini kuchaytiradi [1], [6], [9], [11].

Xulosa qilib aytganda, yuqori sinf o‘quvchilarining ingliz tili darslarida kasbiy kompetentligini rivojlantirishda xalqaro standartlar, ayniqsa CEFR va kompetensiyaga asoslangan yondashuv muhim metodik tayanch bo‘lib xizmat qiladi. CEFR deskriptorlari dars maqsadini aniq belgilash, o‘quv natijalarini o‘lchash va baholash mezonlarini shaffof qilish imkonini beradi. Kasbiy yo‘naltirilgan ta’limda TBLT va kommunikativ metodlar o‘quvchini real hayot va professional vaziyatlarga yaqin muloqotga jalb etib, interaktsiya strategiyalari hamda amaliy til ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001. — 260 p.
2. CEFR Companion Volume with New Descriptors. — Strasbourg: Council of Europe, 2020. — 240 p.
3. Hymes D. On communicative competence // Sociolinguistics. — Harmondsworth: Penguin, 1972. — P. 269–293.
4. OECD. The Definition and Selection of Key Competencies: Executive Summary. — Paris: OECD, 2005. — 20 p.
5. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. — Paris: UNESCO, 2016. — 86 p.
6. Richards J. C. Communicative Language Teaching Today. — Cambridge: Cambridge University Press, 2006. — 52 p.
7. Dudley-Evans T., St John M. J. Developments in English for Specific Purposes: A multi-disciplinary approach. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998. — 301 p.
8. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A learning-centred approach. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987. — 183 p.
9. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. — Cambridge: Cambridge University Press, 2010. — 184 p.
10. Nunan D. Task-Based Language Teaching. — Cambridge: Cambridge University Press, 2004. — 240 p.
11. Weinert F. E. Concept of competence: A conceptual clarification // Defining and selecting key competencies / Ed. by D. S. Rychen, L. H. Salganik. — Seattle: Hogrefe & Huber, 2001. — P. 45–65.
12. Trilling B., Fadel C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. — San

Francisco: Jossey-Bass, 2009. — 256 p.

13. Abduxayotovna, A. X. "The role of flipped classroom method to prepare students for profession at secondary school." *Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy* 1.2 (2025): 689-699.
14. Akhmadaliev K. "The Beneficial Angels of Learner-Centered Approach in Prospering Pupils' Communicative Competence in English Classes at Academic Lyceums." *International Journal on Integrated Education*, vol. 5, no. 1, 2022, pp. 129-135.
15. Akhmadaliev K. (2025). Enhancing high school students' professional competence in english classes through the 4c framework aligned with international social development standards. *Advances in Science and Education*, 1(11), 26-31.2005.
16. Axmadaliyeva, X. Developing Professional Competence of Senior School Students through International Social Standards. *The Lingua Spectrum*, 11(1), 347–353.2025.